

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

on the theme " *Architecture is the Abode of Time* "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University

O'ZBEKISTONDA AN'ANAVIY TURAR-JOY BINOLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

SamDAQU "Arxitektura" kafedrası o'qituvchisi

Dostonov A. S.

SamDAQU "Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va
restavratsiyasi" kafedrası katta o'qituvchisi.

Fozilova Z. Q.

Annotatsiya: Kelajakda yetuk salohiyatli arxitektor kadrlarni tayyorlashda Turar-joy binolari shakllanish bosqichlarini o'rganish va ular ustida tahlillar olib borish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ushbu maqolada O'zbekistonda an'anaviy turar-joy binolarini shakllanish bosqichlari, turar-joylarni shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, turar uy-joylarning tuzilmasi tamoyillari, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Shaharsozlik, turar-joy, shahar, tarix, makon, hajmiy-rejaviy kompozitsiya.

Kirish. Bugungi kunda shaharsozlikda turar-joylarni loyihalash sifatiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, me'moriy-badiiy va tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olish bilan bog'liq bo'lgan hamda ekologiya, sanitariya-gigiyena va estetik talablar. Ana shu talablar majmui turar-joy binolarni loyihalash tamoyillarini shakllanishidagi o'ziga xos zamonaviy omillar sifatida ro'yobga chiqmoqda.

Bir necha yuz yillik madaniy taraqqiyot asosida mahalliy iqlim shart-sharoitlari va xalqning turmush tarzi hamda urf-odatlarini hisobga olinib, O'rta Osiyoning tog'oldi rayonlari, pasttekisliklardagi aholi punktlari shimoliy va janubiy hududlarni egallaganliklari ham bunda ifodasini topdi, hozirgi me'morchilik san'ati tarixi bilan shug'ullanuvchilar orasida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva va Farg'ona turar-joy tiplari farq qiladi. Bundan tashqari tog'oldi va dasht zonalarini uylari tipi ham mavjud. Bularning har biri mahalliy xalq me'morchilik maktablari mahsuli bo'lib, ayni vaqtda umumiy mushtarak belgilarga ham ega.

Bu umumiylik shundan iboratki, ularning barchasida asosiy element hovli hisoblanadi. Hovlilar odatda dahlizlar vositasida bog'langan xonalar hamda ayvon va shu singari yozgi yashash joylari, xo'jalik hamda yordamchi xonalar bilan to'rt atrofdan o'rab olingan bo'lgan[7].

Usullar. Hovlilarni shakllantirish unga nisbatan xonalar va yozgi inshootlarni joylashtirish uslublari yuqorida aytib o'tilgan shahar va viloyatlarda o'ziga xos regional ko'rinishni keltirib chiqardi.

Har qanday turar-uy joyining shakllanishiga geografik muhit albatta katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, shimol tomonida qurilgan uylarda xonadonlarning ichki qismini tashqi muhitdan saqlashga xizmat qilgan, chunki bu yerda eng asosiy talab buning aksi bo'lib, uylarni issiqdan va ularni qizib ketishidan saqlash kerak bo'lgan. Shuningdek, uyni ichkari qismini tashqari muhit bilan hamohang bog'lash kerak bo'lgan. Shunday qilib, qarama-qarshi talablar asosida bir-biriga butunlay o'xshamagan shimol va janub uylarning tuzilmasi (strukturalari) paydo bo'lgan[1].

Milliy madaniyat va urf odatlari ham turar uy-joylarning tuzilmasiga va xillariga ta'sir qiladi. Shuning uchun iqlimi bir bo'lgan janubdagi uy-joylar bir-biriga o'xshab ketsa ham ular shu yerdagi yerli xalqning tarixiy va urf-odatlariga qarab o'zgarib boradi.

Shuning uchun o'zbek xalqining an'anaviy turar-joylari o'zining iqlim-sharoitiga madaniyat darajasiga, urf odatlariga va badiiy an'analariga moslashgan bo'lgan.

Muhokama va natijalar. Turar - uy joylarning O'zbekistonda qurilishi o'zining tarixiy an'anasiga ega. Uylar 2 xilda qurilgan bo'lgan: milliy va yevropa usulida. Uylar asosan shaxsiy hovlilari uylar bo'lgan. Bu uylar qurilish uslubiga ko'ra 3 turga bo'lingan, bular: Buxorochoa uylar, Farg'onacha va Xiva uslubida qurilgan uylar.

Buxoro uylari feodal davrda juda ham rivojlangan bo'lib, zich qurilishlarni tashkil etgan, ular ko'chaga teskari, ya'ni ko'chadan ajratilgan holda hovli tarafga qaratib solingan, xonalar bir-ikki qavatli bo'lib, hovli atrofiga zich qurilgan va shunday qilib hovlida ko'chaning issiq va changli havosiga qaraganda ancha salqin bo'lgan. Buxoro turar joy tipi odatda darvozadan ancha narida usti berk yo'lak dolondan boshlangan. Haqiqatan ham dolonning uy-joy qurilishi sohasidagi vazifasi muhim bo'lgan. O'z o'rnida u yana vestibul rolini ham bajargan. Bundan tashqari qo'shimcha qurilish maydoni, yog'in-sochindan boshpana bo'lib ham xizmat qilgan. Dolon ko'proq shahar hovlilarida ishlatilgan. Dolondan so'ng kirish yoki darvozaxona (ayrim vaqtlarda darvozaxona dolondan avval ham qurilgan) joylashgan. O'sh davrda uylar "tashqari" hamda "ichkari" hovlilarga bo'lingan. Buning sababi bo'lgan. Birinchisi islom dini aqidalarini ta'sirida ayollarni "begona ko'zdan" bекitish bo'lsa, ikkinchisi undan ancha oldin paydo bo'lgan odat — hovlining xo'jalik (tashqari) va madaniy (ichkari) zonalarga bo'linishidir. Xuddi shuning singari xonalarning faqat hovli tarafga qaratilib qurilishi ham ikkiyoqlama xarakterga ega. Ya'ni deraza va eshiklarning tashqariga (ko'chaga) ochilmaganligi birinchidan shariat doirasida bo'lsa, ikkilamchi bu hovlini tashqi shovqin, chang va hokazolardan mustasno qilib, hovlidagi daraxt va gullarga qarata qurilishidir. Buning isboti sifatida O'rta Osiyo turar-joylarida mana shu omilning arablar istilosigacha bo'lganligini keltirish mumkin.

- Xiva uylari yopiq fazoviy uyushma shaklida, ya'ni hovli atrofiga qurilgan bo'lib, Buxorodagi uylardan farqi shundaki, uning tarhida 2 xil ayvon joylashgan. Bu ayvonlar bir-biriga qarama-qarshi joylashgan bo'lib, shimol tarafga qaratib qurilgan ayvon balandroq bo'lgan va u yoz paytida shimol tomondan esayotgan shamolni hovli tomon yo'naltirib hovlilarga mikroklimat (ya'ni salqin havo) hosil qilishga olib kelgan. Xorazm va Quyi Zarafshon mintaqalarining quruq, issiq iqlimi sharoitida bunyod etilgan turar-joy binolari har xil shakldagi, balandlikdagi, ichki kenglik kompozitsiyalaridagi xalq uylarining turlari uchraydi. Bu binolar loyihasi imkoni boricha quyosh nurlarining radiatsiyasidan, kuchli garmsellardan, chang to'zonli va qum – to'zonli shamollardan himoya qilishga qaratilgan.
- Farg'ona uylari esa, Farg'onaning go'zal vodiylarida paydo bo'lib, yopiq xarakterni yo'qotgan. U o'zining tarhida, ya'ni loyihasida ichkari hovlisi yo'q bo'lib, ayvon orqali bog'larga qaratilgan bo'lgan. Farg'ona vodiysida ayvon yoz oylarida asosiy xona bo'lib xizmat qilgan. Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatida ayvonlar oynaband bo'lib bu xildagi ayvonlar (qashqarcha usul) deb atalgan va aholi yil bo'yi shu ayvonda istiqomat qilgan.

Yuqorida aytib o'tilgan an'anaviy uylar oddiy jihozlar va usullar bilan shu orqali iqlim sharoitida juda yaxshi moslashtirilgan bo'lgan. Bu usullar hozir ham me'morlar tomonidan hozirgi zamon uylarini tashkil etishda, ya'ni loyihalashda keng qo'llanilib kelinmoqda. Rossiyadan ko'chib kelgan aholi esa rus uslubida uylar qurganlar. Bu uylar 1 qavatli bo'lib, yakka tartibda alohida-alohida qurilgan.

O'zbekiston iqlim-sharoitida bu uylarning tarhiga albatta katta-katta ayvonlarni bog'larga qaratilgan holda qurishga harakat qilingan. Bunday uylarning devorlari 80-90 sm bo'lib, xom g'ishtdan terilgan va uying ichida yozda salqin va qishda issiq bo'lishiga sabab bo'lgan [2]. Bu uylarning past qavatli va hovliga ega bo'lishi shaharlarning eniga qarab o'sib ketishiga sabab bo'lgan.

Uyning xilini tanlashda uning qayerda joylashgani ham ta'sir qiladi. Uyning joylashgan joyiga qarab uy shahardami, qishloqdami, shahar markazidami yoki chetdami shunga qarab har-xil talablar paydo bo'ladi, undan tashqari yerning past-balandligi, uyni o'rab turgan tabiat iqlimi sharoiti, tuproq tarkibi va yer qimirlash hollari ham uy xilini tanlashda muhim rol o'ynaydi.

Ayniqsa, bu narsaga tabiat - iqlim sharoiti katta ta'sir qiladi. Shimol va janubda quriladigan uylar bir-biridan to'la farq qiladi, undan tashqari nam va quruq iqlim, tog' yoki pastliklar, sahro va nam yerlarning ta'siri ham turar-joy me'morchiligida katta ta'sir o'tkazadi.

Xulosa. Xalq me'morchiligining usullari hozirgi zamon fazoviy kompozitsion usullari bilan ijodiy qo'shilib xalq an'analari, urf-odatlarini inobatga olgan holda turar-joy binolarining me'morchiligini jonlashtirish mumkin. Tipik turar-joylar bilan o'ziga xos original va har-xil ko'rinishdagi turar-joy masalarini yaratish me'morlar oldida ustalik va ijodiy yangi ish uslublarini yaratishni talab etadi. Turar uy-joy va jamoat binolarini muvaffaqiyat bilan aralashtirib, kichik noxiya (mikrorayon) va turar-joy noxiyalar qurilishi kompozitsion har-xil siluetlar hosil qilish, rang va fakturalardan to'la foydalanish yer sathi bilan to'la uyg'unlashib ketishi, ko'kalamzorlashtirish va suv bilan to'g'ri ta'minlash qurilishdagi loqayd ko'rinishlarni yo'qotishga olib keladi. Tipik loyihalarga har-xil yangi usullarni kiritish yo'li bilan uylarni boyitish lozim. Shuningdek, har-xil usul va yo'llarni ishlab chiqish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ahmedov. M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. T;O'zbekiston,, 1995.1346.
2. Ubaydullayev X.M. Inag'omova M.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari. Toshkent 2009.
3. Voxidov.M.M, Mirzayev.Sh.R. Me'morchilik I qism.T.: „Tafakkur“, 2010.
4. Kayumov, H., & Israyilov, E. (2022). Environment as the basis and perceptions of monuments of architecture and historical cities of Uzbekistan. *academia globe: inderscience research*, 3(10), 112-125.

5. Каюмов, Х. И. (2021). Проблемы сохранения архитектуры исторической среды древнего города и развитие туризма. *интернаука*, (20-1), 6-10.
6. Qayumov, X. I. (2021). Dostonov AS Fozilova ZQ Samarqand shahri turar joylarini shahar strukturasidagi o'rni. *Me'morchilik va qurilish muammolari ilmiy-texnik jurnal. Samarqand*, (4).
7. Салохиддинова, Д. З., Каюмов, Х. И., & Фозилова, З. К. (2023). ПРОБЛЕМЫ ЗАСТРОЙКИ ГОРОДА САМАРКАНДА И ЕЕ РЕШЕНИЯ. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 300-305.
8. Salokhiddinova, D. Z., Kayumov, H. I., & Fozilova, Z. K. (2023). PROBLEMS OF DEVELOPMENT OF THE CITY OF SAMARKAND AND ITS SOLUTIONS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 333-338.
9. Fozilova, Z. Q. (2023). Irrigation System of Samarkand City. *Journal of engineering, mechanics and modern architecture*, 2(2), 64-68.
10. Fozilova, Z. Q. (2023). Samarqand shahrining bosh rejalari tahlili. *Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali*, 2(1), 117-122.
11. Салохиддинова, Д. З., & Солиев, Ф. Ф. К ВОПРОСУ ВОСТАНОВЛЕНИЯ ТРАДИЦИОННОЙ ФОНОВОЙ ЗАСТРОЙКИ АНСАМБЛЯ ГУР ЭМИР. *ДУШАНБЕ 2022*, 130.
12. Салохиддинова, Д. З., & Каюмов, Х. И. (2012). Мавзолей Саманидов в загадках и легендах: инженерные приёмы шедевра архитектуры Узбекистана. In *Материалы международной конференции "Современная архитектура и инновации"*.
13. Xayitboyev, N. K., & Pardayev, R. T. (2023). O'ZBEKISTONDA AN'ANAVIY TURAR-JOY BINOLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 254-257.
14. Fozilova, Z. Q., & Xamroqulov, O. (2023). SHAHARSOZLIKDAGI MILLIY-TARIXIY AN'ANALAR. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 245-248.
15. Dostonov, A. S. (2023). ARXITEKTURA SOHASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PARAMETRIK LOYIHALASH VA UNING MUHITLARNI YARATISHDA QO'LLANILISHI. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 762-764.
16. Dostonov, A., & Pardayev, R. (2023). Methods of application of integral compositional means in modern modernization of urban planning systems (on the example of the city of samarkand). *Евразийский журнал академических исследований*, 3(1 Part 4), 42-46.
17. Azimovna, B. M. (2023). SAMARQAND SHAHARSOZLIGI ME'MORIY YODGORLIKLARNING XIX-ASR OXIRI XX-ASR BOSHLARIDAGI HOLATI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 427-430.